

SUN'IY INTELEKTNI YOSHLAR ONGIGA TASIRI**Hudaybergenova Laylo****Chirchiq davlat pedagogika universiteti****Pedagogika fakulteti Psixologiya ta'lim yo'nalishi talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.1838339>**

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgan raqamli texnologiyalar, xususan sun'iy intellektning inson hayotidagi o'рни, uning imkoniyatlari va yuzaga kelayotgan muammolari tahlil qilinadi. Asosan yoshlar orasida gadgetlar va internetdan haddan tashqari foydalanish natijasida fikrlash faolligining pasayishi, bilimlarni tayyor holatda qabul qilishga moyillik kuchayib borayotgani yoritilgan. Ta'lim sohasida sun'iy intellektdan foydalanishning ijobiy va salbiy jihatlari, xorijiy tajribalar asosida muhokama qilinadi. Shuningdek, sun'iy intellektning inson intellekti bilan raqobati, mehnat bozoriga ta'siri va kelajakda kadrlar tayyorlash masalasidagi o'рни tahlil etiladi. Maqolada texnologiya va inson intellekti o'rtasidagi muvozanatni saqlash, yosh avlodni ongli va maqsadli foydalanishga yo'naltirish muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, internet va gadgetlar, yoshlar psixologiyasi, ta'lim sifati, texnologik qaramlik, inson intellekti, raqamlashtirish, bilim va malaka.

Abstract: This article analyzes the role of rapidly developing digital technologies, particularly artificial intelligence, in modern human life. It focuses on the impact of excessive use of the Internet and digital gadgets on young people's thinking abilities, learning motivation, and psychological activity. The advantages and disadvantages of using artificial intelligence in the education system are discussed based on foreign experiences. In addition, the article examines the competition between artificial intelligence and human intelligence, as well as its influence on the labor market. The study emphasizes the importance of maintaining a balance between technological development and natural intelligence, highlighting the need for conscious and purposeful use of digital technologies to ensure intellectual growth and professional development in the digital era.

Keywords: Artificial intelligence, digital technologies, Internet and gadgets, youth psychology, education quality, technological dependence, human intelligence, digitalization, knowledge and skills.

Kirish. Bugun dunyo miqyosida raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgani va uning imkoniyatlari tobora kengayib borayotgani hechkimga sir emas. Haqiqatdan ham internet, qo'limizdagi gadgetlar va biz har doim ishlatadigan qurilmalar hayotimizni anchagina yengillashtirib, vaqtimizni tejamoqda. Shuningdek, kam harakat qilish orqali foydali ish koefitsienti ham oshmoqda. Fantastik janrda suratga olingan filmlardagi voqealar bugun real hayotda ham o'z aksini topmoqda. Buning natijasida texnologiyalarning rivojlanishi insoniyatni ajablantirmay qo'ydi. Aksincha, insonlar ulardan hayratlanish o'rniga xavotirga tushmoqda. Mana shunday xavotirlarga sabab bo'layotgan texnologiyalardan biri bu sun'iy intellekt hisoblanadi. Xo'sh, "Insoniyatning o'zi yaratgan sun'iy intellekt tizimi tabiiy intellektdan kuchlimi?" degan savol barchamiz uchun mavhumligicha qolmoqda?

Dastlab, sun'iy intellekt o'zi nima? degan savolga javob topamiz. Sun'iy intellekt inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo'lgan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiyalar sohasidir. Barchamizga ma'lumki, o'zi yurar avtomobillar, savdo do'konlarida yoki umumiy ovqatlanish shahobchalarida xizmat ko'rsatuvchi robotlar, hattoki, mobil qurilmalarimizdagi

dasturlar ham sun'iy intellekt asosida yaratilib, hayotimizni yengillashtirmoqda. Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining qanday yaratilishi yoxud rivojlanish bosqichlari haqida emas, aksincha, ulardan qanday maqsadda foydalanayotganligimiz va hayotimizni qanchalik o'zgartirayotganligi hamda qay darajada inson intellekti bilan raqobatlasha olishi haqida so'z boradi.

Misol tariqasida aksariyat insonlar (asosan yoshlar) kundalik hayotida muntazam ravishda mobil telefondan foydalanadi. Uning funksiyalari bisyor: manzilni aniqlash, internet orqali onlayn tarzda mahsulotlarga buyurtma berish, muloqotning turli xil ko'rinishlari (ijtimoiy tarmoq va platformalar), dunyoning istalgan nuqtasidan kerakli axborotni olish yoki tarqatish, minglab kitoblarning elektron ko'rinishlarini saqlay olishi shular jumlasidandir. Bu kabi imkoniyatlar insonlar uchun xizmat qilishi bilan bir qatorda ularning harakatini cheklashi, dangasa va erinchoqlik hissini uyg'otishi, shuningdek, gadjetlarga nisbatan qaramlikka olib kelishi mumkin.

Aksariyat rivojlangan mamlakatlar ham shu kabi muammolarga duch kelmoqda. "TechXplore" saytida berilgan maqolada AQSHdagi ba'zi o'qituvchilar ta'lim muassasalarida sun'iy neyrontarmoqlarini taqiqlashni taklif qilmoqda. Bunga sabab qilib talabalarining sun'iy intellektidan muntazam ravishda foydalanishi ta'lim sifatini yillar kesimida orqaga surayotganligini ta'kidlashmoqda. Xususan, olimlar talabalarining oraliq nazorat, imtihonlar, mustaqil ish, ilmiy ishlarini sun'iy intellekt orqali bajarayotgani va taqdim etilgan materiallar inson intellektiga qaraganda mukammalroq ekanini ta'kidlashgan. Shuningdek, o'qituvchi-professorlar sun'iy intellektning ishlarini talabaning haqiqiy ishidan ajrata olmayotganini, ta'lim sohasida raqamli tizimlardan vos kechgan holda ya'ni kompyuterda nazorat ishi va vazifalarni ta'qiqlashni hamda qog'ozli imtihonlarga qaytish g'oyasini ilgari surmoqda.

AQSHda bir guruh o'qituvchilar tomonidan tajriba o'tkazildi. Tajribadan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarining darslarni o'zlashtirish darajasini aniqlash edi. Dars boshlanishidan oldin auditoriyadagi talabalarining mobil telefonlari yig'ib olindi. Shundan so'ng, darsda uyga vazifa mavzusi talabardan so'raldi. Natijada talabalarining 95%i darsga tayyor emasligi ma'lum bo'ldi. Odatiy o'quv jarayonida esa buning aksi ya'ni o'quvchilarning 95%i darsda faol ishtirok etar edi. Tajriba natijalariga ko'ra, shunday xulosaga kelindi: talabalarda telefon bo'lgan paytda, uyga vazifani birinchi talaba javob bergunga qadar auditoriyadagi boshqalar internet orqali mavzuni izlab topishga harakat qiladi va undan keyingilari so'ralgan mavzu bo'yicha qoniqarli ba'zan a'lo darajada javob beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, talaba yoshlarning fikrlashi, axborotlarni qabul qilishiga nisbatan dangasalik mavjud. Ularda zarur ma'lumot yoki axborotni tayyor holda internetdan olish imkoniyati mavjud. Bu holat esa, ularning o'z ustida ishlashini izdan chiqaradi. Natijada ular tayyor ma'lumot oladi va faol talabaga aylanadi.

Yuqoridagi savolga qaytamiz. "Sun'iy intellekt tabiiy intellektidan kuchlimi?" Insoniyatning yaratgan ixtirosi o'zidan kuchli bo'lishi mumkinmi?

Sun'iy intellekt bazasidagi ma'lumotlar miqdori bugungi kunga kelib, aqlbovar qilmas darajada kengayib ketdi. Dunyo aholisi esa undan o'z kundalik xizmatlari uchun foydalanishmoqda. Yuqoridagi ma'lumotlar bunga yaqqol misol bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, sun'iy intellekt hayotimizning qaysidir jabahlarida inson intellektidan yaxshiroq ishlamoqda. Avvallari insonlar oddiy vazifalarni bajarish uchun soatlab vaqtini sarflashgan bo'lsa, bugun aynan o'sha vazifani birgina tugmani bosish orqali bajarish mumkin. Texnika imkoniyatlari tobora ortib borayotganligi ortidan, ayrim insonlarda o'z ishini yo'qotish va uning o'rnini sun'iy intellekt egallash qo'rquvi kuchaymoqda. Qishloq xo'jaligi sohasidan toritib to xizmat ko'rsatishgacha

bo'lgan tarmoqlarda sun'iy idrokdan foydalanish kengayib bormoqda. Aslida bu xavotir qanchalik o'rinli?

Qaysidir ma'noda o'rinli ekanligini tadqiqotchilar alohida ta'kidlashmoqda. Sababi bugun tarmoq va gadjetlarga bo'lgan qaramlik hatto statistik raqamlarda ko'rsatilganidan yuqori ekanligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Bu esa, vaqtni behuda narsalarga sarflash, yangi bilimlarni olish va izlanishga bo'lgan ishtiyoqni pasaytirishga olib kelmoqdi. Shundan so'ng esa, yuqoridagi xavotirlar paydo bo'lishiga asos yaratadi. Statistika raqamlarga nazar tashlaydigan bo'lsak,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining bergan ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 10 va undan katta yoshdagi aholining mobil internetdan foydalanuvchilar ulushi 50.1% ni tashkil etadi. Ko'rsatilgan raqamlardagi foydalanuvchilar soni kun sayin ortib bormoqda. Raqamlashtirish va sohaning rivojlanishi yangi ish o'rinlarini paydo qilmoqda. Mutaxassislarining bergan ma'lumotiga ko'ra, sun'iy intellekt inson ish o'rnini egallamaydi. Ammo, shu texnologiyadan xabardor bo'lgan va sohasining asl mutaxassislari bo'lgan kadrlarga talab oshadi. Bu fikrlardan quyidagicha xulosa qilish mumkin. Bugun yosh avlod o'zining bor kuch va imkoniyatlarini ishga solmasdan, tarmoq va gadjetlarga qaram holda, ulardan maqsadsiz foydalanishda davom etsa, raqamli dunyoda ikkinchi darajali kadrqa aylanadi. Bu kabi, kadrlarning o'rnini esa, yuqorida sanab o'tgan texnologiyalar orqali to'ldirish mumkin. Aksincha zamonaviy bilimlar va texnologiyalardan xabardor holda, shuningdek bilim va tajribalarini oshirishda foydalansa uning uchun yangi imkoniyatlar eshigi har doim ochiladi. Bugungi imkoniyatlar davrida o'z ustida ishlagan, kasb va mahorat egalarining o'rnini hech qanday sun'iy intellekt to'ldira olmaydi. Texnologiya va tabiiy intellekt hamohangligida esa, yuqori marralarni zabt etish mumkin.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, texnologiyani yaratgan inson, undan yanada yuqori bo'lgan intellektlarni yaratishga qodir. Ammo bu natijani qayd etish uchun u o'ziga berilgan imkoniyat, resurs va vaqtdan unumli foydalanishi kerak. Yuqori intellekt va bilimga ega insonni jamiyatda va har qanday ishda ham o'z o'rnini bo'ladi. Uning o'rnini sun'iy intellekt to'ldirishi amrimahol. Izlanish, ilm olish va rivojlanishda ekansiz, sizning o'ringizni hech qanday texnologiya to'ldira olmaydi. Shunday ekan, harakat qilishdan to'xtamang!

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. — Pearson Education, 2021.
2. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age. — W. W. Norton & Company, 2016.
3. TechXplore axborot portali materiallari.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy ma'lumotlari, 2023-yil.
5. Floridi L. Ethics of Artificial Intelligence. — Oxford University Press, 2019.
6. UNESCO. Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policymakers. — 2021.